



UDK: 316.6:159.9

*Durdona NIZAMUTDINOVA,*  
Fan va texnologiyalar universiteti talabasi  
ORCID: 0009-0001-3976-4177  
E-mail: [durdonanizamutdinova@gmail.com](mailto:durdonanizamutdinova@gmail.com)

USAT dotsenti v.b, R.O.Rasulov taqrizi asosida

## SOCIAL ACTIVITY OF STUDENT YOUTH IN MODERN SOCIETY: A PSYCHOLOGICAL ANALYSIS

Annotation

This article provides a psychological analysis of the social activity of student youth in modern society. The study examines the essence of social activity, the internal and external factors influencing it, the forms of student youth participation in social life, as well as the importance of social activity in personal development and the formation of civic position.

**Keywords:** social activity, student youth, psychological analysis, motivation, youth psychology, civic position, social development.

## СОЦИАЛЬНАЯ АКТИВНОСТЬ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЁЖИ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ: ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

В данной статье социальная активность студенческой молодёжи в современном обществе анализируется с психологической точки зрения. В исследовании раскрываются сущность социальной активности, внутренние и внешние факторы, влияющие на неё, формы участия студенческой молодёжи в общественной жизни, а также значение социальной активности в личностном развитии и формировании гражданской позиции.

**Ключевые слова:** социальная активность, студенческая молодёжь, психологический анализ, мотивация, психология молодёжи, гражданская позиция, социальное развитие.

## ZAMONAVIY JAMIYATDA TALABA-YOSHLARNING IJTIMOYIY FAOLLIGI: PSIXOLOGIK TAHLIL

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda talaba-yoshlarning ijtimoiy faolligi psixologik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotda ijtimoiy faollikning mazmuni, unga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar, talaba-yoshlarning jamiyat hayotidagi ishtirok shakllari hamda ijtimoiy faollikning shaxsiy rivojlanish va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy faollik, talaba-yoshlar, psixologik tahlil, motivatsiya, yoshlar psixologiyasi, fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy rivojlanish.

**Kirish.** Zamonaviy jamiyat taraqqiyotida yoshlarning, ayniqsa talaba-yoshlarning ijtimoiy faolligi muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va madaniy rivojlanishi ko'p jihatdan yoshlarning faolligi, tashabbuskorligi hamda jamiyat hayotidagi jarayonlarda faol ishtirok etishiga bog'liq. Shu sababli talaba-yoshlarning ijtimoiy faolligini o'rganish va uning psixologik jihatlarini tahlil qilish zamonaviy psixologiya fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy faollik shaxsning jamiyatdagi turli ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishi, tashabbus ko'rsatishi hamda jamiyat rivojiga hissa qo'shishga intilishi bilan tavsiflanadi.

Talaba-yoshlar jamiyatning eng faol qatlamlaridan biri bo'lib, ular yangi g'oyalar, innovatsion tashabbuslar va ijtimoiy o'zgarishlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Talabalarning ijtimoiy faolligi ularning ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etishi, turli jamoat tashkilotlari, volontyorlik faoliyati hamda ijtimoiy loyihalarda qatnashishi orqali namoyon bo'ladi. Bunday faoliyat nafaqat jamiyat rivojiga xizmat qiladi, balki yoshlarning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy tajriba orttirishi va fuqarolik pozitsiyasining shakllanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Psixologik nuqtai nazardan ijtimoiy faollik shaxsning ichki motivatsiyasi, ijtimoiy qadriyatlarini, ehtiyojlari hamda ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatlari orqali shakllanadi. Yoshlarning ijtimoiy faolligi ko'plab omillar bilan bog'liq

bo'lib, ular orasida ijtimoiy muhit, ta'lim jarayoni, shaxsiy qiziqishlar, motivatsiya darajasi va ijtimoiy tajriba muhim o'rin tutadi. Ayniqsa oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarning turli ijtimoiy loyihalar, jamoat tadbirlari va volontyorlik faoliyatlarida ishtirok etishi ularning ijtimoiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli talaba-yoshlarning ijtimoiy faolligini psixologik jihatdan o'rganish ularning shaxsiy rivojlanishi hamda jamiyat taraqqiyotini ta'minlash nuqtai nazaridan muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Psixologiya fanida ham shaxsning ijtimoiy faolligi uning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiylashuv jarayonining muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida baholanadi. Mashhur psixolog A.N. Leontyev shaxs faoliyat jarayonida shakllanishini ta'kidlab, insonning ijtimoiy muhitdagi faol ishtiroki uning shaxs sifatida rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishini qayd etadi<sup>1</sup>. Bu fikr talaba-yoshlarning ijtimoiy faolligini o'rganish zamonaviy jamiyat sharoitida muhim ilmiy masala ekanligini ko'rsatadi.

**Metodologiya.** Zamonaviy jamiyat sharoitida talaba-yoshlarning ijtimoiy faolligini psixologik jihatdan tahlil qilish maqsadida bir qator ilmiy metodlardan foydalandik. Psixologiya, ijtimoiy psixologiya hamda yoshlar psixologiyasiga oid nazariy qarashlar asosida shakllantirdik. Shuningdek, shaxsning ijtimoiy faolligi, uning shakllanish omillari hamda yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini

belgilovchi psixologik omillarni aniqlashga qaratilgan ilmiy yondashuvlardan foydalanildi.

Mavzuyimizning asosini shaxs faoliyati nazariyasi, ijtimoiylashuv jarayoni hamda motivatsiya nazariyalariga oid ilmiy qarashlar tashkil etadi. Mazkur nazariy yondashuvlar talaba-yoshlarning ijtimoiy faolligini shaxsning ichki ehtiyojlari, ijtimoiy qadriyatlar va jamiyat bilan o'zaro munosabatlari orqali shakllanadigan murakkab psixologik hodisa sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Shu nuqta nazardan ijtimoiy faollik shaxsning jamiyat hayotidagi jarayonlarda faol ishtirok etishi, tashabbus ko'rsatishi hamda ijtimoiy muammolarni hal etishda faol pozitsiya egallashi bilan bog'liq bo'lgan psixologik jarayon sifatida qaraladi.

Mavzu jarayonida birinchi navbatda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish metodidan foydalanildi. Ushbu metod yordamida yoshlarning ijtimoiy faolli, uning psixologik xususiyatlari hamda ijtimoiy faollikni shakllantiruvchi omillar haqida ilgari olib borilgan ilmiy tadqiqotlar o'rganildi. Ilmiy manbalarni tahlil qilish natijasida talaba-yoshlarning ijtimoiy faolli shaxsning motivatsiyasi, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy tajribasi hamda ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatlari bilan chambarchas bog'liq ekanligi aniqlandi. Psixologik tadqiqotlar ham shaxsning ijtimoiy faolli uning ehtiyojlari va motivatsiyasi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Masalan, mashhur psixolog A. Maslow inson faoliyatining asosiy manbai uning ehtiyojlari tizimi ekanligini ta'kidlab, shaxsning ijtimoiy faoliyati ham ana shu ehtiyojlarning qondirilishi jarayonida shakllanishini qayd etadi [2].

Qiyosiy tahlil metodidan ham foydalanik. Ushbu metod yordamida yoshlarning ijtimoiy faolli masalasiga oid turli ilmiy qarashlar, psixologik nazariyalar hamda zamonaviy tadqiqotlar o'zaro taqqoslab o'rganildi. Qiyosiy tahlil talaba-yoshlarning ijtimoiy faolli turli ijtimoiy va psixologik omillar ta'sirida shakllanishini aniqlashga yordam berdi. Shuningdek, bu metod yoshlarning ijtimoiy faolli shakllantirishda ta'lim muassasalari, ijtimoiy muhit hamda shaxsiy motivatsiyaning o'rni muhim ekanligini ko'rsatdi.

Bundan tashqari, tizimli yondashuv metodidan foydalanildi. Ushbu metod ijtimoiy faollikni shaxsning psixologik rivojlanishi, ijtimoiy muhit va ijtimoiy tajriba o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik asosida tahlil qilish imkonini berdi. Tizimli yondashuv talaba-yoshlarning ijtimoiy faolli faqat alohida psixologik hodisa sifatida emas, balki shaxsning ijtimoiylashuv jarayoni bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida ko'rib chiqishga yordam berdi. Ijtimoiy psixologiya tadqiqotlarida ham shaxsning ijtimoiy faolli uning jamiyat bilan o'zaro munosabatlari jarayonida shakllanishi ta'kidlanadi. Jumladan, G.M. Andreeva shaxsning ijtimoiy faoliyati ijtimoiy munosabatlar tizimi orqali rivojlanishini qayd etadi [3]. Shu tariqa qo'llanilgan metodlar talaba-yoshlarning ijtimoiy faolli psixologik jihatdan kompleks tahlil qilish, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda zamonaviy jamiyat sharoitida yoshlarning ijtimoiy faolli rivojlantirish masalalarini ilmiy asosda yoritish imkonini berdi.

**Natijalar.** Zamonaviy jamiyat sharoitida talaba-yoshlarning ijtimoiy faolli ko'plab psixologik va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanishini ko'rsatdi. Ijtimoiy faollik yoshlarning jamiyat hayotidagi turli jarayonlarda faol ishtirok etishi, tashabbus ko'rsatishi hamda ijtimoiy muammolarni hal etishda o'z pozitsiyasini namoyon qilishi bilan tavsiflanadi. O'rganishlarimiz davomida talaba-yoshlarning ijtimoiy faolli belgilovchi asosiy omillar sifatida motivatsiya, ijtimoiy qadriyatlar tizimi, ijtimoiy muhit hamda shaxsiy tajriba muhim rol o'ynashi aniqlandi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, talaba-yoshlarning ijtimoiy faolli ularning shaxsiy motivatsiyasi va ijtimoiy ehtiyojlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ijtimoiy faol bo'lgan yoshlar odatda jamiyat hayotidagi turli jarayonlarda faol ishtirok etishga, jamoat ishlari va ijtimoiy loyihalarda qatnashishga hamda turli tashabbuslarni ilgari surishga intiladilar. Bu jarayon yoshlarning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy tajriba orttirishi va jamiyatdagi o'z o'rni anglashiga yordam beradi. Shuningdek, ijtimoiy faol talaba-yoshlar o'z tengdoshlari orasida yetakchilik xususiyatlarini

namoyon etishi, jamoada samarali muloqot o'rnatishi hamda ijtimoiy mas'uliyatni his etishi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, ijtimoiy muhit talaba-yoshlarning ijtimoiy faolli shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalaridagi ijtimoiy muhit, talabalar tashkilotlari faoliyati, turli jamoat tadbirlari va volontyorlik faoliyati yoshlarning ijtimoiy faolli rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Talaba-yoshlarning turli ijtimoiy loyihalar, jamoat tadbirlari va volontyorlik faoliyatlarida ishtirok etishi ularning ijtimoiy tajribasini boyitadi hamda jamiyat hayotiga nisbatan faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan oliy ta'lim muassasalari talabalarning ijtimoiy faolli rivojlantirishda muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, tadqiqot natijalari zamonaviy jamiyatda talaba-yoshlarning ijtimoiy faolli turli shakllarda namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Jumladan, yoshlar volontyorlik faoliyati, ijtimoiy loyihalar, jamoat tashkilotlari faoliyati hamda turli ijtimoiy tashabbuslar orqali jamiyat hayotida faol ishtirok etadilar. Bunday faoliyat yoshlarning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy mas'uliyat hissining shakllanishi hamda jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarni anglashiga yordam beradi. Psixologik tadqiqotlar ham shaxsning ijtimoiy faolli uning ijtimoiy tajribasi va shaxsiy qadriyatlar bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Masalan, taniqli psixolog L.S. Vygotskiy shaxs rivojlanishining asosiy omillaridan biri ijtimoiy muhit ekanligini ta'kidlab, insonning shaxs sifatida shakllanishi ijtimoiy munosabatlar jarayonida amalga oshirishini qayd etadi [4].

Shuningdek, natijalar yoshlarning ijtimoiy faolli shaxsning o'zini namoyon qilish ehtiyoji va jamiyatda muhim rol o'ynashga intilishi bilan ham bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Ijtimoiy faol talaba-yoshlar ko'pincha jamiyatdagi ijtimoiy muammolarga befarq bo'lmaydi, balki ularni hal etishda faol ishtirok etishga harakat qiladi. Shu jihatdan ijtimoiy faollik shaxsning ijtimoiy mas'uliyati, fuqarolik ongining rivojlanishi hamda jamiyat hayotidagi faol pozitsiyasini aks ettiruvchi muhim psixologik ko'rsatkich hisoblanadi. Ijtimoiy psixologiya tadqiqotlarida ham shaxsning ijtimoiy faolli uning ijtimoiy identifikatsiyasi va jamoaviy faoliyat jarayonida shakllanishi ta'kidlanadi. Jumladan, A. Bandura ijtimoiy o'rganish nazariyasida insonning xulq-atvori ijtimoiy muhitdagi kuzatish va o'zaro ta'sir jarayonida shakllanishini ko'rsatadi [5].

Umuman olganda, tadqiqot natijalari talaba-yoshlarning ijtimoiy faolli zamonaviy jamiyat rivojida muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Yoshlarning ijtimoiy faolli ularning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy tajriba orttirishi hamda jamiyat hayotida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli talaba-yoshlarning ijtimoiy faolli rivojlantirish masalasi zamonaviy psixologiya va ta'lim tizimi oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

**Muhokama.** Tadqiqot natijalarini muhokama qilish jarayonida zamonaviy jamiyatda talaba-yoshlarning ijtimoiy faolli faqat tashqi ishtirok yoki jamoat tadbirlarida qatnashish bilan cheklanmasligi, balki murakkab psixologik mazmunga ega hodisa ekani yanada aniqroq namoyon bo'ldi. Ijtimoiy faollik yoshlarning o'zini jamiyatning muhim subyekti sifatida his qilishi, ijtimoiy jarayonlarga daxldorlik tuyg'usini boshdan kechirishi, muammolarga befarq bo'lmasligi va ularga nisbatan faol munosabat bildirishida aks etadi. Shu ma'noda, talaba-yoshlarning ijtimoiy faolli ularning fuqarolik pozitsiyasi, shaxsiy mas'uliyati, ijtimoiy identifikatsiyasi va ichki motivatsiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan ko'p qatlamli psixologik jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, talaba-yoshlarning ijtimoiy faolli rivojlantirishda eng muhim omillardan biri — ularga real ishtirok imkoniyatlarini yaratib berishdir. Agar yoshlar faqat kuzatuvchi emas, balki tashabbus ko'rsatuvchi, qaror qabul qilishda qatnashuvchi va jamoat faoliyatida amaliy rol bajaruvchi subyekti sifatida maydonga chiqsa, ularning ijtimoiy faolli barqaror psixologik sifatga aylana boshlaydi. Bu jihat ayniqsa bugungi oliy ta'lim muassasalari sharoitida muhimdir. Chunki universitet muhiti yoshlarning ijtimoiy tajriba orttirishi, muloqot doirasini kengaytirishi, jamoaviy mas'uliyatni his qilishi va ijtimoiy rollarni sinab ko'rishi uchun tabiiy psixologik makon

vazifasini bajaradi. Lonnie Sherrodning ta'kidlashicha, yoshlarning klublar, tashkilotlar va turli dasturlardagi ishtiroki fuqarolik faolligi rivojlanishiga olib boradigan muhim yo'llardan biri bo'lib, aynan ishtirok etish imkoniyatining o'zi ijtimoiy faollikni shakllantiruvchi resurs sifatida baholanadi [6]. Bu qarash bizning natijalarimiz bilan mos keladi: ijtimoiy faollik avvalo amaliy ishtirok tajribasi orqali mustahkamlanadi.

Muhokama davomida yana bir muhim jihat aniqlandi: talaba-yoshlarning ijtimoiy faolligi ko'pincha "jamiyatga foydali bo'lish", "o'z hissasini qo'shish", "atrofdagilar tomonidan qadrlanish" kabi psixologik ehtiyojlar bilan bog'liq holda rivojlanadi. Demak, ijtimoiy faollikning ichki manbai ko'p hollarda shaxsning o'zini ahamiyatli his etish ehtiyojida yotadi. Bunda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ayniqsa tengdoshlar va ta'lim muassasasi tomonidan yaratilgan psixologik muhit hal qiluvchi rol o'ynaydi. Agar yosh o'z fikri inobatga olinayotganini, tashabbusi qadrlanayotganini va ishtiroki real natija berayotganini ko'rsa, uning ijtimoiy faollikka bo'lgan moyilligi kuchayadi. Elvira Cicognani va Bruna Zani tadqiqotlarida ham ijtimoiy ishtirok, jamoaga mansublik hissi va ijtimoiy farovonlik o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligi ko'rsatilgan; ayniqsa siyosiy-madaniy hamda prosotsial ishtirok yoshlarning o'z jamiyatiga tegishlilik hissini kuchaytirishi ta'kidlanadi [7].

Shu nuqtai nazardan, talaba-yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish uchun faqat targ'ibot yoki nazariy tushuntirishlar yetarli emas. Ularga mustaqil tashabbus ko'rsatish, jamoat loyihalarida qatnashish, volontyorlik faoliyatida ishtirok etish, talabalar boshqaruvi tizimida ovozga ega bo'lish kabi aniq amaliy platformalarni yaratish zarur. Chunki ijtimoiy faollik psixologik jihatdan faqat ichki xohish emas, balki imkoniyat, tajriba va ijtimoiy tan olinishi bilan mustahkamlanadigan sifaddir. Umuman olganda, tadqiqot natijalari talaba-yoshlarning ijtimoiy faolligi zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-psixologik barqarorligi va kelajak taraqqiyoti uchun strategik ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy jamiyatda talaba-yoshlarning ijtimoiy faolligi shaxsning psixologik rivojlanishi,

ijtimoiylashuvi va fuqarolik pozitsiyasining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Ushbu tadqiqot davomida ijtimoiy faollik talaba-yoshlarning jamiyat hayotidagi turli jarayonlarda ongli va tashabbuskor ishtiroki, ijtimoiy muammolarga befarq bo'lmazligi hamda jamoat manfaatlariga daxldorlik hissi bilan bog'liq murakkab psixologik hodisa ekani aniqlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talaba-yoshlarning ijtimoiy faolligi ko'plab ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanadi. Ichki omillar sifatida motivatsiya, qadriyatlar tizimi, o'zini namoyon qilish ehtiyoji, ijtimoiy mas'uliyat hissi va fuqarolik ongini ko'rsatish mumkin. Tashqi omillar esa ijtimoiy muhit, ta'lim muassasasidagi psixologik atmosfera, tengdoshlar ta'siri, jamoat tashkilotlari faoliyati va jamiyat tomonidan yaratilgan ishtirok imkoniyatlari bilan belgilanadi. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalari yoshlarning ijtimoiy faolligini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy-psixologik makon sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, tadqiqot davomida ijtimoiy faollikning talaba-yoshlar shaxsiy rivojiga ijobiy ta'siri borligi ham asoslandi. Ijtimoiy faol yoshlar odatda o'z fikrini erkin ifodalay oladi, jamoada ishlash ko'nikmasiga ega bo'ladi, tashabbus ko'rsatishga intiladi va jamiyatdagi muammolarni anglash darajasi yuqori bo'ladi. Bunday sifatlar esa ularda yetakchilik, mas'uliyat, muloqot madaniyati va ijtimoiy moslashuvchanlik kabi muhim psixologik xususiyatlarining rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan ijtimoiy faollik nafaqat jamiyat uchun, balki yoshlarning o'zi uchun ham muhim rivojlantiruvchi omildir.

Umuman olganda, zamonaviy jamiyatda talaba-yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish masalasi strategik ahamiyatga ega. Chunki ijtimoiy faol yoshlar kelajakda jamiyat taraqqiyotining faol ishtirokchisi, tashabbuskori va mas'ul fuqaro sifatida shakllanadi. Shu sababli oliy ta'lim tizimida yoshlarning ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash, ularga amaliy ishtirok imkoniyatlarini yaratish, volontyorlik, jamoat ishlari va ijtimoiy tashabbuslarda qatnashishini rag'batlantirish muhim vazifa bo'lib qoladi. Aynan shu yo'l orqali jamiyatda faol, ongli, mas'uliyatli va tashabbuskor yoshlar qatlamini shakllantirish mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Политиздат, 1975. – С. 165.
2. Maslow A.H. Motivation and Personality. – New York: Harper, Row, 1970. – p. 35.
3. Андреева Г.М. Социальная психология. – М.: Аспект Пресс, 2001. – С. 214.
4. Выготский Л.С. Психология развития человека. – М.: Смысл, 2005. – С. 96.
5. Bandura A. Social Learning Theory. – New York: General Learning Press, 1977. – p. 22.
6. Sherrod L.R. Civic Engagement as an Expression of Positive Youth Development // Silbereisen R.K., Lerner R.M. (eds.) Approaches to Positive Youth Development. – London: SAGE Publications, 2007. – P. 66.
7. Cicognani E., Zani B. Participation of Young People in Civic Life: The Role of Sense of Community. – Budapest: Partnership between the European Commission and the Council of Europe, 2006. – P. 15.
8. Rasulov R. Zamonaviy kommunikatsion texnologiyalarning jamiyatdagi mafkuraviy jarayonlarga bo'lgan ta'siri // «ACTA NUUZ». – 2025. – T. 1. – №. 1.12. – С. 176-179.
9. Rasulov, Rustambek. "O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining yoshlar dunyoqarashi siyosiy ijtimoiylashuviga ta'siri." «ACTA NUUZ» 1.1.4. 1 (2025): 169-171.
10. Tursunov O., Rasulov R. O. Zamonaviy dasturlash muhitida arifmetik amallarni avtomatlashtirish: c# winforms asosida kalkulyator modeli // Академические исследования в современной науке. – 2025. – Т. 4. – №. 19. – С. 23-26.
11. Khaydarova M., Rasulov R. Positive and negative consequences of the globalization process // International Conference on Arts, Society & Humanities. – 2025. – Т. 1. – №. 3. – С. 35-39.
12. Rasulov R. The importance of education and upbringing in forming political socialization in the worldview of youth // Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 48. – С. 124-132.
13. Odilovich, Rasulov Rustambek. "Cultural basics of education and the role of youth in it. Philosophy And Life International Journal. ISSN 2181-9505. Doi jurnal 10.26739/2181-9505."
14. Odilovich R. R. The Essence of Political Socialization Processes and their Role in Social Development // Spanish Journal of Innovation and Integrity. – 2024. – Т. 37. – С. 32-41.
15. Odilovich, Rasulov Rustambek. "Yoshlar bilan ishlash tizimida ma'naviy-mafkuraviy omillarning yoshlar ongiga ta'siri." International Journal of Scientific Research 2 (2023): 147-152.
16. Rasulov R. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining yoshlar dunyoqarashi siyosiy ijtimoiylashuviga ta'siri // «ACTA NUUZ». – 2025. – Т. 1. – №. 1.4. 1. – С. 169-171.171.